

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
20		Sport faoliyati (qo'l to'pi)	+		Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, qo'l to'pi bo'yicha trener, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yo'riqchi-uslubchi

Yo'nalish tavsifi

Sport faoliyati (sport turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oiliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attetasiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga "Bakalavr" malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat (lar) beriladi. Sport faoliyati (sport turlari bo'yicha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish; maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish; sport turlariga oid harakatlarga o'rgatish; jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo'llash; harakatlarga o'rgatish, jismoniy yuklamarni miqdor va sifat jihatidan boshqarish va individuallashtirish; jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilib boorish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.